International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 1)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI ANIQLASH USULI, MUAMMOLARI VA AFZALLIKLAR



Sobitov Zohid Sadriddin o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy Universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs talabasi
E-mail: sobitovzohid6@gmail.com

“Kambag‘allik bu baxtsiz hodisa emas. Qullik va kamsitish kabi, bu insonlar tomonidan o‘ylab topilgan va ular tomonidan yo‘q qilsa bo‘ladigan ijtimoiy muammodir”- Nelson Mandela. [1]

Agar siz ko‘chada ma’lum bir insonlarni to‘xtatib ulardan kambag‘allik nima ekanligi haqida so‘rovnoma o‘tkazadigan bo‘lsangiz, turli xil javoblarni olishingiz mumkin. Masalan, bir insondan bu savolni so‘rasangiz uning javobi quyidagicha bo‘lardi: “oziq-ovqatning yetishmasligi”, boshqa bir inson esa: “ xarid qobilyatining yo‘qligi” , yana bir boshqa odam: “ uysizlik” deya javoblarni bergan bo‘lar edi.

Aslida kambag‘allik nima va uni aniqlash usullari qanday? Keling bu haqida batafsil ushbu maqolada o‘z fikrlarim va yurtimizdagi sharoitlardan kelib chiqqan holda batafsil gaplashaylik.

Kambag‘alik bu- shaxs yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy holatining o‘ziga xos xususiyati bo‘lib, bunda ular mehnat qobiliyatini saqlab qolish, ko‘payish kabi hayot uchun zarur bo‘lgan minimal ehtiyojlarning ma’lum bir doirasini qondira olmaydilar [2]. Ya’ni inson to‘laqonli qobilyatlaridan foydalanishlik uchun unga eng avvalo birlamchi extiyojlar muhim o‘rin kasb etadi. Bilim olish, san’at bilan shug‘g‘ullanishi, madaniy hordiq chiqarishidan ilgari oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joyga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishi lozim.

Kambag‘allik global mavzu bo‘lganligi va u davlatlarning rivojlanganlik darajasini belgilab berganligi sababli, bu muammoni hal qilish borasida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2024-yil 11-sentabr kuni kambag‘allikni qisqartirish ishlarini keyingi sifat bosqichiga olib chiqish masalallari muhokamasi bo‘yicha videoselektorda “*Bundan buyon kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi. Hukumatdan tortib, tuman tashkilotigacha barcha bo‘g‘indagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambag‘allikdan olib chiqish bo‘lishi kerak. Bu borada nazorat ham, so‘rov ham qattiq bo‘ladi”*[3], – deb ta’kidlab o‘tdi.

Eng avvalo muammoni yechishdan oldin uni aniqlab olish va ma’lum bir maqsad va usul yordamida aniqlash lozimligi tadqiqot ishimizning maqsadi hisoblanadi. O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish sohasidagi davlat siyosati haqida gap ketganda, Jahon banki tomonidan qo‘llaniladigan kambag‘allik ko‘rsatkichlarini hisoblash usullari mamlakat uchun ideal yechim emas. Kam sonli davlatlar ushbu ko‘rsatkichni milliy kambag‘allik darajasini hisoblash uchun ishlatadilar. Fikrimizcha, bunday yondashuv O‘zbekistonga ham katta foyda keltirmaydi. Shu sababli, O‘zbekistonda kambag‘allikni aniqlashning eng muqobil usuli sifatida ko‘p

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

o‘lchovli kambag‘allik indeksi (Multidimensional Poverty Index, MPI) qo‘llanishi mumkin. Bu usul faqat daromad darajasiga asoslanib qolmay, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, turmush sharoitlari va asosiy ehtiyojlar kabi omillarni ham hisobga oladi. Kambag‘allikning eng oddiy o‘lchovi - monetar kambag‘allik. Bunda daromadingiz ma’lum summadan kam bo‘lsa, siz kambag‘al hisoblanasiz. Ko‘p o‘lchovli kambag‘allikda esa odamning qaysi imkoniyatlardan mahrumligi aniqlanadi. Xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash xizmatlaridan foydalana oladimi, yashash sharoiti qandayligi o‘rganiladi. O‘zbekistonda shu yo‘nalishda Statistika agentligi 16 mingta uy xo‘jaliklarida so‘rovnoma o‘tkazmoqda. Natijalar 2025-yilda e’lon qilinadi.[4] Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksining afzallik tarafi—bir odamning yashash sharoiti turli tomondan qanday o‘zgarayotganini baholaydi. U davlatning qator sohalarda bajarayotgan ishlari samarasini o‘lchash imkonini ham beradi.

Ko‘p olchamli kambag‘allik usuli bizga quyidagi afzalliklarni beradi. Ko‘p o‘lchovli usul nafaqat odamlarning daromadini, balki ularning turmush darajasiga ta’sir qiluvchi boshqa omillarni ham hisobga oladi. Masalan: ta’lim darajasi ya’ni savodxonlik va bolalar maktabga qatnashi, sog‘liqni saqlash va uy-joy sharoitlari. O‘zbekistonda hududlar o‘rtasidagi tabaqalanashuv juda yuqori bo‘lganligi sababli, kambag‘allikni aniqlash biroz muammoli hisoblanadi. Ammo bu uslub orqali biz statistik ma’lumotlarga asoslangan holda qaysi hududga qancha davlat budjeti va mahalliy budjetlardan mablag‘ ajratilish kerakligini bilish imkoniga ega bo‘lamiz. Bu esa bizga nafaqat ma’lum hududlarda kambag‘allikni aniqlashga balki ularga yechim topishga imkon beradi. Bundan tashqari, faqat daromad mezoniga asoslangan kambag‘allik chegarasi ko‘pincha ayrim muhim jihatlarni hisobga olmaydi. Shu sababli tadqiq etilayotgan usul kambag‘allikning sabab va oqibatlarini chuqurroq tahlil qilish qilish imkonini beradi. Vanihoyat, ko‘p o‘lchovli kambag‘allik usuli qaysi sohalarda resurslar yetishmayotganligini ko‘rsatadi. Masalan, ayrim hududlarda ta’lim muammolari asosiy sabab bo‘lsa, boshqa hududlarda tibbiy xizmatga e’tibor qaratish lozim. Shu sababli ushbu uslub maqsadli yordam dasturalarini ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu uslubni amalga oshirish uchun eng avvalo aholini ro‘yhatga olish kerak. Bu borada allaqachon yurtimizda ishlar boshlangan va 2026-yilning 15-iyulidan 21-avgustigacha o‘tkazilishi rejalashtirilgan.[5] Sog‘liq, ta’lim va turmush darajasi bo‘yicha maxsus ko‘rsatkichlar ishlab chiqirilishi lozimligi ham muhim. Hozirgi kunda yurtimizda tibbiy sug‘urta tizimi joriy qilinayotganligi sog‘liqni saqlash tizimiga yetarlicha yengilliklarni kelgusida ta’minlashi bilan kambag‘allikni qisqartirishga e’tibor qaratilmoqda.

Tanganing ikki tomoni bordek, kambag‘allikni aniqlashda ushbu usuli ham bir qancha muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni aniqlash uchun bir nechta ko‘rsatkichlarni hisobga olish kerak, bu esa o‘z navbatida jarayonni qiyinlashtiradi ko‘plab resurslarni talab qiladi. Chunki boshqa usullarda asosan bir tomonlama yondashuv bo‘ladi ya’ni, masalan, iste’mol savati yordamida kambag‘allikni aniqlashda asosan kunlik birlamchi mahsulotlarni narxini hisobga olgan holda ma’lum bir birlik yaratiladi va bu esa mamlakatdagi kambag‘allar sonini

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

ushbu mezon orqali aniqlash nisbatan osonroq va ko‘p vaqt talab qilmaydi. Barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha ishonchli va dolzarb ma’lumotlar to‘plash har doim ham mumkin emas, bu esa aholi qatlamani to‘g‘ri tahlil qilishga xalaqit beradi. Ko‘p o‘lchamli kambag‘allikda aniqlashda turli xil yondashuvlarni hisobga olganligi bois, har bir sohaga har xil yondashuv talab qilinadi. Masalan, ta’lim va sog‘liqni saqlashni yaxshilash bo‘yicha siyosatlar bir-biridan farq qiladi va bu usulni moliyalashtirish yetarlicha davlat va nodavlat budjetlarga og‘irlik tug‘diradi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek ushbu uslubda asosan aholi bilan to‘g‘ridan-to‘gri ishlanishi sababli, insonning subyektiv fikrlari noaniqliklarga olib kelishi mumkin. Afsuski yurtimiz aholisida bu kabi uslubni qo‘llash bir qancha qiyinchiliklarga olib keladi va dunyoqarash – bu eng asosiy muammo hisoblanadi. Xatto, shunday oilalar bor ahvol juda og‘ir, lekin ular bu kabi so‘rovnomalarda har doim ijobiy javoblarni berishini kuzatishimiz mumkin. Aksincha, ba’zi oilalar esa buning aksini qilishini kuzatishimiz mumkin. Ko‘p o‘lchamli kambag‘allik faqat iqtisodiy muammolarni emas, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash va gender tengsizligi kabi masalalarni ham ochib beradi, bu esa yanada kengroq va uzoq muddatli yondashuvlarni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston hozirgi kunda tez fursatda rivojlanib borayotganligi davlat bo‘lganligi sababli, kambag‘allik nafaqat iqtisodiy, balki jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uchun jiddiy to‘siqdir. Uni bartaraf etish faqat moddiy yordam bilan cheklanmasligi kerak, shu sababli faqatgina monetar siyosat bilan bu muammoni hal qilish to‘g‘ri yo‘l bo‘lmasligi mumkin. Kambag‘allikni aniqlash va kamaytirish har bir insonning salohiyatini ro‘yobga chiqarishga imkon berib, yanada kuchli va farovon jamiyatni barpo etishga xizmat qiladi. Ko‘p o‘lchamli kambag‘allik usulining afzalliklari yurtimizning hozirgi holatiga juda ham mos, chunki u kambag‘allikni kompleks yondashuv bilan tahlil qiladi. Ushbu usul natijalari asosida davlat resurslarini samarali taqsimlash va ijtimoiy siyosatni optimallashtirish imkoniyati yaratiladi. Bu naqafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanish uchun ham mustahkam asos bo‘ladi. Shu sababli barcha usullarni o‘rgangan holda, ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni aniqlash usuli eng muqobil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 20 Poverty Quotes to Inspire Change. https://convoyofhope.org/articles/poverty-quotes/
2. Qashshoqlik. Wikipediya**.** https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Qashshoqlik
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. Kambag‘allikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi. https://president.uz/oz/lists/view/7537
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Statistika Agentligi rasmiy sayti. https://stat.uz/uz/
5. Kun.uz sayti. O‘zbekistonda aholini ro‘yxatga olish 2025–2026-yillarga mo‘ljallanmoqda – prezident qarori. https://kun.uz/news/2024/03/17/ozbekistonda-aholini-royxatga-olish-2025-2026-yillarga-moljallanmoqda-prezident-qarori

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024